

SALAVKIYLAR DAVLATI

Ismoilova Shoxista Baxtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar va san'at fakulteti

Tarix yo`nalishi 1-bosqich 101-gurux talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Salavkiylar davlatining tashkil topishi, rivojlangan davri, hukmdorlari, ularning harbiy yurishlari siyosiy boshqaruvi va salavkiylar madaniyati haqida yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Diodoxlar, satrapliklar, strateglar, Pompey Trog, Arrian.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается об основании, периоде развития, правителях государства Селевкидов, политическом управлении их военными кампаниями и культуре Селевкидов.*

Ключевые слова: *диодокс, сатрапы, стратеги, Помпей Трог, Арриан.*

Annotation: *this article covers the founding, the developed period of the Seleucid state, the rulers, the political rule of their military campaigns and the culture of the Seleucids.*

Keywords: *Diodochus, satrapites, Strategos, Pompey Trog, Arrian.*

Mil.avv 323-yilda Makedoniyalik Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etadi. Ko'plab ma'lumotlarda Aleksandr o'z qarindoshi Inolla tomonidan zaxarlab o'ldirilganligi haqida ham keltirilgan. Uning vafotidan so'ng siyosiy vaziyatlar yuzaga kelib, Aleksandr tuzgan davlat o'rniga nisbatan barqaror bo'lgan davlat uyushmalari paydo bo'ldi. Bu tuzilgan davlatlar Aleksandr Makedonskiyning yaqin sarkardalari – diodoxlari o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli tashkil qilinadi. Diodoxlar o'rtasidagi urushlar 40 yildan ziyod davom etadi. Uzoq davom etgan urushlardan so'ng mil.avv 306- yilda nisbatan kuchli bo'lgan diodoxlar – Antigon Birko`zli, Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag,

Lazimax, Salavka, Kasandrlar o'zlarini hukmdor deb e'lon qiladilar va Aleksandr tuzgan davlatni bo'lib o'z davlatiga asos soladilar. Shu tariqa tarixda G'arb va Sharq an'analarini uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ladi. Shu davlatlardan biri Salavkiylar davlatidir. Salavkiylar davlati asoschisi dastlab Aleksandrning tansoqchisi, keyin yirik sarkarda bo'lgan Salavka edi. Salavka mil.avv 312- yilda diadoxlar bilan bo'lgan kurashda g'olib bo'lib, Bobil, Suziana, Midiya va boshqa qo'shni viloyatlarni bosib oldi va ko'p o'tmay hududini kengaytirish uchun Old Osiyo, Eron va O'rta Osiyoga ham yurish qilib o'z hukmronligini o'rnatad. Salavkiylar davlati rivojlangan davruda hududi g'arbda Egey dengizida sharqda Hind subkontinentigacha cho'ziladi. Bundan tashqari Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, Shimoliy Mesopotamiya, Bobil, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg'onistonning kata qismini ham egallaydi.

O'rta Osiyo yerlari salavkiylar tomonidan bosib olinishi mil.avv 306-301-yillarga to'g'ri keladi. Yunon tarixchisi Pompey Trogning ma'lumot beishicha "Salavka ba'zi joylarni muzokaralar bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir jang olib borishga to'g'ri keldi." Salavka mil.avv 293- yilda Sharqiy viloyatlarga noib qilib o'g'li Antioxni tayinladi. Antiox Spitamenning qizi Apama va Salavkning farzandi edi. Bu narsa Salavkiylarda hokimlarning podsho oilasi bilan qarindoshlik aloqasi bo'lishi boshqaruv tizimining asosiy hususiyatlaridan biridir. Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yo'nalishlari Salavka I va Antiox I (mil.avv 281-261-yillar) hukmronligi davrida shakllanadi. Mil.avv 280- yilda Salavka o'limidan so'ng Antiox podsho bo'ladi va davlatni 20 yil davomida boshqaradi.

Salavkiylar Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol harakat olib boradilar. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo hududlari uchun Ptolomey(Ptolomey Lag) bilan tinimsiz kurash olib boradi. Sabab bu hududlarda savdo yo'llaridan tashqari ko'plab port-shaharlar mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda vaziyat murakkab bo'lib, bunga sabab sharqiy viloyatlar boshqaruv markazidan ancha uzoq bo'lib, boshqarishda qiyinchilik tug'dirar edi. Lekin shunday bo'lishiga

qaramasdan Salavka I va Antiox O`rta Osiyoga katta e`tibor berganliklari yunon tarixchilari ma`lumotlarida keltirib o`tilgan. Ularning davrida 75 ta shaharlar qurilganligi bunga isbot bo`ladi. Bu shaharlar Salavkiya, Antioxiya va boshqa shunday nomlar bilan tilga olinadi. Baqtriya, Sug`diyona, Marg`iyona, Parfiya hududida salavkiylar davrida yunon aholisi ko`chirib keltirilgan va bu shaharlar aholisi gavjumlashgan. Bu davrga oid Baqtra va Niso kabi shahar harobalarida olib borilgan arxeologik tatqiqotlar natijasida bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo`jalik ishlari rivojlanganligidan xabar beradi. Strabon bergan malumotlarga qaraganda Antiox Marg`iyonada o`z nomiga qurdirgan shahar – Antioxiyaning ko`chmanchilarning tinimsiz xujumidan himoya qilish maqsadida Murg`op voxasi atrofini 250 km devor bilan o`rab olgan. Ammo ko`chmanchilarning hujumlari bu bilan to`xtamagan. Ular u yoki bu shahar [devorlari ostida yoki ekinzor](#), dalalar hamda voha bog`larida kutilmaganda paydo bo`lar va yana tezda ko`zdan g`oyib bo`lar edilar. Ana shunday og`ir bir vaziyatda Salavka I Hindistonga qarshi urush boshlaydi. Bu urush uning mag`lubiyati bilan yakunlanadi. Natijada Salavkiylarning O`rta Osiyodagi obro`siga putur yetadi, ularga qarshi qo`zg`olonlar boshlanadi. Salavkiylar og`ir axvolga tushib qoladilar. Antiox mahalliy aslzodalarga [bir qadar yon bosib](#), og`ir vaziyatning oldini oladi. U Baqtriyada Sharqiy viloyatlar uchun davlatning o`z pullarini zarb etishga kirishadi. Antiox nomi bilan Baqtriyada pul zarb etilishi uning mustahkam davlat siyosatini olib borayotganligini ko`rsatar edi. Miloddan avvalgi 280-yilda Salavka I vafot etadi. Salavkiylar davlatiga Antiox I bosh bo`ladi. Ana shu davrdan boshlab sharqiy viloyatlar Antiox I faoliyatidan chetda qoladi. Chunki g`arbiy viloyatlardagi harbiy vaziyat uning qo`shini bilan birga bo`lishini taqozo etar edi.¹

Salavkiylar turli etnik guruhlarini harbiy kuch ishlatish yo`li bilan bo`ysindirganlar. Bundan tashqari Salavkiylar hududlariga ham ko`chmanchi qabilalar hham tez-tez yurish qilib turganlar. Salavka I Hindistonga harbiy yurish uyushtiradi. Lekin bu davrda Hindistinda Chandragupta mil.avv IV

¹ <https://atelim.com/mavzu-salavkiylar-davlati>.

asirning oxirlarida Maurya davlatiga asos solib, Salavkaga qarshilik ko`rsatadi. Salavkani Hindistondan quvib chiqaradi. Salavkiylar sulh ko`rinishidagi “mag`lubiyatli” shartnomani imzolaydi. Bu holat Salavkiylarning O`rta Osiyoda obro`sigga salbiy ta`sir qiladi. Salavkiylarga qarshi ko`plab harbiy qo`zg`alonlar ko`tariladi. Ayniqsa qo`zg`alonlar Salavka I vafotidan so`ng juda ham kuchayib ketadi. Salavkiylar davlatida ichki siyosiy boshqaruv murakkab edi. Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha bo`lgan ko`plab viloyatlar mavjud bo`lib, bu holat kuchlarni yagona davlatga birlashtirib turishni ancha qiyinlashtirgan. Harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatishyo`li bilan bosib olingan halqlarni itoatda tutib turgan. Salavkiylarda podsho hokimiyati mutloq bo`lib, ular bir vaqtning fuqarolar ma`muriyati oliy boshlig`i, qo`shinlarning bosh qomondoni, oliy sudya va hatto bosh qonun chiqaruvchi vazifalarini bajargan. Ma`lumotlarda berilishicha sulola asoschisi Salavka I “podsho tomonidan buyurilgan barcha narsalar doimo adolatlidir.” Degan tamoyillarga amal qilgan. Podsholar ikkita huquqiy asosga ega edilar: 1. Bosib olish va 2. Hokimiyatni otadan bolaga me`ros bo`lib qolish huquqi. Bundan tashqari salavkiylar da podsholar ilohiylashtirilgan. Bunga yaqqol misol qilib tangashunoslik ma`lumotlarida keltirilgan Soter- qutqaruvchi, Dikayos- adolatparvar, Everget – ezgulik kabi podsholar bo`lganliklari takidlab o`tilgan. Tangashunoslik ma`lumotlariga qaraganda Salavka I davlati Ahamoniylar va Aleksandr davlati hududidan birmuncha kichik bo`lib, 27-28 ta satrapiyaga bo`lingan. Har qaysi satrapiyani podsho tomonidan tayinlanib qo`yilgan satrap yoki strateg mansabidagi shaxs boshqargan. Fors davlatidan farq qilgan holda, satrap-strateglar ham ma`muriy ham harbiy boshqaruvni qo`lga olganlar. Satrab – strateglarning yordamchilari bo`lib, ular soliq yig`uvchilarni faoliyatini ichki va tashqi savdo xo`jalik hayotini nazorat qilganlar. Ba`zi manbalarda satrap-strateglari yunoncha nomad tilga olingan. Bundan shuni bilish mumkinki, salavkiy hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy zodagonlar tayyorlangan. Katoykiyalar – O`rta Osiyodago harbiy

punktlar bo`lib, Salavkiylar hokimyatni boshqarishda hatto katoykiyalarda joylashgan harbiy kuchlarga tayanganlar edilar. Salavkiylar davlati ma'lum bir xalq yoki elatlardan iborat bo`lmay ko`pdan ko`p etnik guruhlarini birlashtirishdan tashkil topgan. Davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega bo`lgan yo`nalishlardan biri barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy ishlar podsho saroyi bilan bog`liq bo`lgan. Barcha mamlakat va davlatlarni o`z soliq tartibi bo`lib , salavkiylar hukmdorlari ham Ahamoniy va Makedoniya mamlakatlarining tartibini o`zlariga moslashtirib o` soliq tartibini tuzib chiqqanlar. Mil.avv III asrning 60-50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarimoroli o`rtasida hokimyat uchun kurash avj oladi. Natijada tarqoqlashuv vujudga kelib, sharqiy viloyatlarda siyosiy vaziyat o`zgaradi. Mil.avv 250-yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon – Baqtriya davlatlari Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib , o`zlarini mustaqil deb e`lon qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov R.R Qadimgi dunyo tarixi. T:”fan va texnologiya” , 2009, 440 bet
2. Shamsuddinov R Vatan tarixi (birinchi kitob) , T: “Sharq” 2010, 510 bet
3. Murtazayeva R.H O`zbekiston tarixi , Toshkent, 2005, 536 bet